

**NEFT VA GAZ SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI
HOLATI TAHLILI
АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ В
НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ
ANALYSIS OF THE STATE OF PRODUCTION COSTS IN THE OIL AND
GAS INDUSTRY**

Raxmatova.M.G

*Associate Professor of the Department of "Industrial Economics and Management" of
the TSTU, PhD*

G'ofurov.Sh.N

*3rd year student of the Department of "Industrial Economics and
Management" of TSTU*

Annotatsiya: ushbu maqolada neft-gaz sanoatida ishlab chiqarish xarajatlari nimalardan iboratligi va ularning pirovard mahsulotga qanday ta'sir etishi haqida so'z boradi. Shuningdek, xarajatlar dinamikasiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarga nimalar kirishi hamda xarajatlarni optimallashtirishga erishish yo'llari bo'yicha qisqacha tavsiflar berilgan.

Аннотация: в данной статье рассказывается о том, что такое производственные затраты в нефтегазовой отрасли и как они влияют на конечный продукт. Также даны краткие характеристики внутренних и внешних факторов, влияющих на динамику затрат, и пути достижения оптимизации затрат.

Abstract: This article discusses what production costs are in the oil and gas industry and how they affect the final product. It also provides a brief description of the internal and external factors that affect cost dynamics and ways to achieve cost optimization.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish xarajatlari, ta'sir qiluvchi omillar, xarajatlari dinamikasi, narx siyosati, yangi yashil texnologiyalar, investitsion holati.

Ключевые слова: издержки производства, факторы влияния, динамика затрат, ценовая политика, новые зеленые технологии, инвестиционная ситуация.

Keywords: production costs, influencing factors, cost dynamics, pricing policy, new green technologies, investment situation.

Kirish

Og'ir sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishni industrilashtirish muammolarini hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida iqtisodiy islohotlar yo'lida jamiyatning moddiy-texnika asosini qayta qurish bilan bir qatorda sanoatni, shuningdek, neft va gaz sanoatini rivojlantirishdan boshlandi. Bunga asosiy sabab sifatida neft va gaz sanoatining respublikaning iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini oshirishning asosiy manbasi deb hisoblanishidir.

Neft va gaz sanoatining rivojlanishiga texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'lgan elektrlashtirish, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish to'g'ridan to'g'ri hissa qo'shadi. Shunday ekan, hozirgi vaqtdagi eng dolzarb muammolardan biri sanoatdagi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisoblanadi.

Neft va gaz sanoatining o'ziga xos xususiyatlaridan asosiysi-asosiy fondlar unumining pasayib borishidir. Neft va gaz sanoatida mahsulotli qatlamlaridan neft va gaz qazib chiqara olishga qarab quduqlar unumdorligining tabiiy pasayishi sabab bo'ladi. Hozirga kelib kon qatlam o'zgarish davriga o'tsa, o'z-o'zidan quduqlarning mahsuldorligi pasayib boradi. Pasaygan mahsuldorlik hisobiga ma'lum bir hududdagi gazlar beradigan gazlar hajmi kamayib boradi va o'z navbatida bu xarajatlar tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

“Neft-gaz sanoati aholi va iqtisodiyot tarmoqlari uchun energiya manbai, ko'plab mahsulotlar uchun xomashyo yetkazib beradigan muhim sohadir. Shu bois energetika, neft-gaz, geologiya yo'nalishlarida chuqur tarkibiy islohotlar, raqobatdoshlikni kuchaytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

“Neft va gaz geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish va olib borish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga muvofiq, yangi konlarni aniqlash, uglevodorod xomashyosi zaxiralarini rivojlantirishning barcha tashkiliy-moliyaviy jihatlari belgilab berilgan edi.¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga joriy yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida: “xorijiy ekspertlarni neft-gaz sohasidagi davlat korxonalarini boshqarishga jalb etib, ularning samaradorligini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish, qarz miqdorini kamaytirishga erishish lozimligini ta'kidlagan edi. Yangidan tasdiqlangan hukumat oldiga shu borada ustuvor vazifalar qo'yildi”, dedi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimizda Yalpi ichki mahsulot uzoq davr mobaynida har yili kamida 8 foizga o'sishi sur'atlarini ta'minlash bo'yicha o'ta muhim vazifalar turgan pallada

¹ Sh.Mirziyoyevning PQ-4388-son [qarori](#).

O'zbekiston neft-gaz tarmog'ining barqaror rivojlanishi ulkan ahamiyatga ega bo'lmoqda. Biz korxonalar faoliyati yo'nalishini shunday qayta tashkil qilishga urinyapmizki, eng asosiy e'tibor tabiiy gaz kabi strategik xom ashyo eksportini oshirishga emas, uni qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, sifati va ekologiya talablari bo'yicha jahon standartlariga javob beradigan, yuqori likvidli neft-gaz va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha o'z quvvatlarimizni rivojlantirishga garatilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotlarimiz jarayonida neft va gaz sanoatida ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ilmiy qarashlarni o'rganishda ilmiy abstraktsiya usuli hamda ulardan ayrimlarini maqolada aks ettirishda sintez usulidan foydalandik. O'zbekistonning neft va gaz sanoatida ishlab chiqarish xarajatlariga oid iqtisodiy ma'lumotlarni to'plashda statistik usuldan, boshqa ta'sir etuvchi omillar darajasini aniqlash uchun qiyosiy usullardan foydalanildi. Shuningdek, xarajatlarni baholashda funksional usul ham ishlatilib, yaqin kelajakda kutish mumkin bo'lgan xarajatlar uchun prognozlash qo'llandi.

Adabiyotlar sharhi

Neft va gaz sanoati avvaldan katta ahamiyatga ega tarmoq bo'lgan va dunyo mamlakatlari iqtisodiy qudratlarini ham aynan shu soha orqali rivojlantirishga urinishgan. Ushbu soha ham iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi xarajatlarsiz yuz bermaydi. Ana shu xarajatlarni iloji boricha minimallashtirish uchun ko'plab iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy yondashuvlari bilan muammoni yengillashtirishga unirishgan.

M.Porterning raqobatbardosh ustunlik nazariyasi neft va gaz sanoatidagi qiymat zanjiri narxini tahlil qilish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. G.Mintzberg tashkilotlarining konfiguratsiya kontseptsiyasi turli tuzilmalar va jarayonlar neft va gaz kompaniyalarining samaradorligi va xarajatlariga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

W. Deming mahsulot sifatini yaxshilash va xatolarni tuzatish xarajatlarini kamaytirish uchun "Universal Deming sifat menejmenti tamoyillari" qo'llanilishi mumkin. K.Isaaksonning strategik menejment bo'yicha tadqiqotlari neft va gaz sanoatida xarajatlarni kamaytirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish uchun vositalarni taklif etadi.

Mahalliy olimlar va ularning tadqiqotlari ham yurtimizdagi holatni bilgan holda ilmiy qarashlar bilan ko'maklashdi. O'zR FA neft va gaz tadqiqotlari instituti

olimlari neft va gaz qazib olishni optimallashtirish, neft qazib olishni oshirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish sohasida tadqiqotlar olib bormoqdalar, bu esa xarajatlarni kamaytirishga bevosita ta'sir qiladi. Toshkent davlat texnika universiteti mutaxassislari ham neft va gazni qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqmoqdalar, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar

Neft va gaz qazib chiqarishda xarajatlarning to'g'ri turkumlanishi, mahsulot tannarxi ustidan ma'lum ma'noda nazorat o'rnatish shuningdek ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bularga qazib olishning tabiiy sharoiti va tarmoq omillari kiradi. Neft va gaz qazib chiqarish tarmog'ida qazib olishning tabiiy sharoitlariga va usullariga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilar:

-quduq debetining oshishi va mahsulot beruvchi qatlamning o'tkazuvchanlik qobiliyatining yaxshilanishi;

-neft, gaz va kondensatli konlarning mahsuldor qatlamlarini bir vaqtning o'zida alohida ishlatilishini yo'lga qo'yish;

-qatlam bosimini ushlab turish bo'yicha qilinadigan ishlar;

-neft, gaz va gazkondensatni qazib olish usullarini va tabiiy sharoitlarini intensivlashtirish va yaxshilashga yordam beruvchi omillar.

Xarajatlar va tannarxga ta'sir qiluvchi tarmoq omillari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-neft narxining pasayishi, soliq yukining oshishi;

-yangi neft, gaz va gazkondensat konlarini ishga tushirish;

-neft narxini tiklash, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish;

-ishlab turgan quduqlar fondini konservatsiyadan chiqarish, vaqtincha to'xtatilgan quduqlarni ishga tushirish, haydovchi va nazorat quduqlarini, dublyor quduqlarini ishga tushirish bilan oshirish;

-kam samarali ba'zi quduqlar va asbob-uskunalarini tugatish.

Neft va gaz ishlab chiqarish tannarxi uglevodorodlarni qidirish, qazib olish, tashish va dastlabki qayta ishlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z ichiga olgan murakkab ko'rsatkichdir. Ushbu xarajatlarning tuzilishi konning o'ziga xos sharoitlariga, mintaqaga, qo'llaniladigan texnologiyalarga va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. Neft va gaz ishlab chiqarish tannarxining asosiy tarkibiy qismlari:

1. Qidiruv va qazib olish xarajatlari:

- geologiya-qidiruv ishlari: qidiruv va qidiruv quduqlarini burg'ulash, seysmik tadqiqotlar, geokimyoviy tahlillar.

- operatsion quduqlarni burg'ulash: burg'ulash xarajatlari, korpuslar, tsementlash, quduqlarni o'zlashtirish.
- quduq uskunalari: nasoslar, kompressorlar, ko'targichlar va boshqa neft va gaz uskunalarni o'rnatish xarajatlari.
- sanoat ob'ektlarini qurish va ulardan foydalanish: quduq butalarini, neft quvurlarini, gaz quvurlarini, kompressor stantsiyalarini, neft yig'ish punktlarini qurish.
- kimyoviy reagentlar: neft ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun kimyoviy reagentlarning narxi, korroziya inhibitorlari va boshqalar.

2. Operatsion xarajatlar:

- energiya: elektr energiyasi, gaz, transport vositalari va uskunalar uchun yoqilg'i.
- ish haqi: burg'ulashchilar, operatorlar, muhandislar va boshqa ishchilar uchun ish haqi.
- asosiy vositalarning amortizatsiyasi: uskunalar, binolar va inshootlarning eskirishi.
- ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish: uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari.
- transport xarajatlari: neft va gazni konlardan qayta ishlash punktlariga tashish.

3. Soliqlar va yig'imlar:

- kon solig'i: neft va gaz kompaniyalari tomonidan to'lanadigan asosiy soliq.
- boshqa soliqlar va yig'imlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, ekologik yig'imlar va boshqalar.

4. Boshqa xarajatlar:

- sug'urta to'lovlari: uskunalar, xodimlar, javobgarlikni sug'urtalash.
- yangi qazib olish texnologiyalari va usullarini topish xarajatlari.
- boshqaruv xarajatlari: ma'muriy apparatni saqlash xarajatlari.

Geologik qidiruv ishlarining iqtisodiy samaradorligi bitta ko'rsatkich o'lchanishi mumkin emas. Shunga asosan (geologik qidiruv jarayonini bosqichlar va territoriyalar bo'yicha tashkil qilish, ishlab chiqarish ishlari turlarini komplekslash, qattiq, suyuq va gazzimon foydali qazilma konlarini izlash va qidirishning xususiyatlari, tabiiy omillar va boshqalar) geologik qidiruv ishlarining iqtisodiy samaradorligi turli ko'rsatkichlar tizimi yordamida o'lchanishi lozim.

1-jadval

Maydonda qidiruv ishlarining geologik-iqtisodiy samaradorligi va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (shartli birliklar asosida tahlil olib borildi).

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
1	Loyihalangan izlov quduqlarining soni	dona	3
2	Loyihadagi chuqurlik	metr	3800
3	Umumiy chuqurlik	metr	11400

4	Burg'ilashning o'rtacha tezligi	m/st.oy	304,8
5	Strukturani chuqur burg'ilashga tayyorlashga xarajatlar	ming so'm	1649
6	Loyihalangan quduqni qurishda ruxsat etilgan assignovaniya	ming so'm	1209,432
7	Loyihalangan izlov burg'ilash ishlariga ruxsat etilgan assignovaniya	ming so'm	3628,297
8	1 m loyihalangan burg'ilashning narxi	ming so'm	318,27
9	Izlov ishlariga umumiy xarajatlar	ming so'm	5277,297
10	Maydonda loyihalangan ishlarning davomiyligi	Oy	19,1
11	1m burg'ilashga zaxiralarining kutiladigan o'sishi	ming tonna	199
12	1 dona quduqni burg'ilashga zaxiralarining kutiladigan o'sishi	ming tonna	756
13	1 tonna kutiladigan shartli yoqilg'I zaxiralarini tayyorlashga xarajatlar	ming tonna	2326,8

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib maydonda olib boriladigan izlov ishlarining samaradorligini aniqlaymiz. Bir metr izlov qudug'ini burg'ilash ishlarining samaradorligi S3 toifadagi neft, gaz va kondensat zaxiralarining Q o'sishini burg'ilash ishlarining umumiy hajmiga V nisbatidan iborat:

$$S_{um} = \frac{Q}{V}$$

Shunga muvofiq maydonda 1 metr burg'ilash ishlarining samaradorligi:
S= 2268000 : 11400 = 318,27.

1 ta izlov qudug'ini burg'ilashning samaradorligi S3 toifadagi neft, gaz va kondensat zaxiralarining Q o'sishini burg'ilanadigan izlov quduqlarining umumiy soniga nisbatidan iborat:

$$S_{q,b} = \frac{Q}{N}$$

Maydonda bitta izlov qudug'ining samaradorligi: $S_{q,b} = 2268000 : 3 = 756$ ming tonna shartli yoqilgi. S3 toifadagi neft, gaz va kondensat zaxiralarining 1 tonna shartli yoqilg'isiga izlov ishlarining narxi geologik-izlov ishlariga xarajatlarning zaxiralarning o'sish miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$A_{sh,y} = \frac{C}{I}$$

Maydonda izlov ishlarining zaxira birligidagi narxi:

$$A_{sh,y} = 5277297 : 2268000 = 2326,8 \text{ so'm/1t.sh.y.}$$

2-jadval

Konlarda neft qazib olishni so'nggi bosqichida quduqlardan neft o'zlashtirishni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash

Baholash nomi	Baholash formulasi	Izoh
Iqtisodiy ko'rsatkichlar		
Energiya xarajatlari	$E = \frac{\sum_{j=1}^y E_j}{\sum_{j=1}^y FD * D_h} * FD_i * d_i^2$ <p>E= suyuqlikni I maydonda mexanik ajratib olish uchun energiya sarfi, ming so'm; I-konlarining soni; E_j- j ishlab chiqarish tsexi uchun; tsex E_i- suyuqlik ishlab chiqarish i koni uchun; Y-sexlar soni; D_i-konda nasosni yo'naltirishning o'rtacha chuqurligi, m; D_h- Korxonaga burg'ilayotgan konda nasosni yo'naltirishning o'rtacha chuqurligi, m.</p>	Konlar bo'yicha neft qazib olish uchun energiya xarajatlari, qazib olish quduqlarining chuqurligini hisobga olgan holda, suyuqlikni mexanik vositalar bilan olishga mutanosib ravishda taqsimlanadi.
Ma'lum bir kongaga doir bevosita xarajatlari	$Mn_i = \frac{\sum_{j=1}^l Mn_j}{\sum_{j=1}^y P_j} * P_i^3$ <p>Mn_i- I kon uchun yordamchi materiallar xarajatlari, ming so'm; Mn_j- j tsexi uchun qazib olishda ishtirok etadigan yordamchi materiallar xarajatlari, ming, so'm; P_j-kongaga suvning ishchi agentini quyish, ming. tonna P_i-tsexni qazib olish uchun suv quyish hajmi</p>	Yordamchi materiallarning narxi suv quyish bilan mutanosib ravishda taqsimlanadi

<p>1 tonna neftni qazib olish tannarxi</p>	$C = \frac{3_1+3_2}{Q_H} \cdot 4$ <p>3₁-quduqqa ishlov berish usuliga qarab xarajatlar (qazib olingan neftni texnologik tayyorlash, yer osti foydali qazilma zaxirasiga sun'iy ta'sir ko'rsatish, neftni to'plash va tashish, quduqlarni umumishlab chiqarish va amortizasiya xarajatlari) 3₂-neft qazib olish va quduqdagi uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish uchun elektr energiyasi sarfi xarajatlari</p>	<p>Quduq narxini to'g'ri va ob'ektiv baholash alohida quduqlarning samaradorligini aniqlashga yordam beradi (past rentabelli, ishlash uchun chekli quduqlar)</p>
<p>Neft qazib olishni oshirishga qaratilgan texnika-texnologiya larni joriy etishdan yillik iqtisodiy samaradorlikni hisoblash</p>	$I_e = E_1 U_1 + Y \Delta U - E_2 U_2 - E_n K_n^5 \quad (7)$ <p>I_e-tadbirlarni tadbiriq etish samaradorligi; E_1 ba E_2- burg'ilashdan 1 tonna neftni qazib olish va yangi texnologiyadan foydalanish uchun berilgan xarajatlar, ming so'm / tonna; U_1 ba U_2- yangi uskunalardan foydalanmasdan yillik neft qazib olish ming so'm / tonna; ΔU- yangi texnika-texnologiya ishlatilishi tufayli qo'shimcha yillik neft qazib olish, ming so'm/tonna; Y- 1 tonna neft qazib olish bo'yicha o'ziga xos pasaytirilgan xarajatlarning maxsus me'yori ming so'm/tonnaga oshadi; K_n- qo'shimcha kapital qo'yilmalar, ming so'm; E_n-yangi texnika-texnologiyani amaliyotga tadbiriq etishga talab</p>	<p>Foydali qatlamning neft beruvchanlik usullari hamda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash formulasi</p>

Ushbu xarajatlar sirasiga kiruvchi operatsion xarajatlarga misol sifatida yuqoridagi jadvalni taqdim etmoqdamiz. Biz o'z ma'lumotlarimiz kelib chiqqan holda neftni o'zlashtirishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashni formulalar orqali tushuntirishga harakat qildik.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan va eng yirik soliq to'lovchi yuridik shaxslardan biri bo'lgan "Uzbekneftegaz" AJ neft va gaz sanoatini rivojlantirish uchun

salmogli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Korxonada uning tasarrufidagi mavjud konlarning salmog'ini kengaytirish va yangi zaxiralarni topish eng muhim va strategik vazifa hisoblanadi. Joriy yilda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini, jamiyat bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlari amalga oshirish natijasida 302,3 mlrd. so'm yoki yillik xarajatlarni 6,2% ga kamaytirishga erishildi. Jumladan, bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari va ekspluatasiya xarajatlarini kamaytirish hisobiga 199,7 mlrd. so'm, energiya tejash hisobiga 16,6 mlrd so'm, boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarini kamaytirish hisobiga 23,8 mlrd so'm, boshqa xarajatlarni kamaytirish hisobiga 62,2 mlrd so'm mablag'lar tejaldi. Quyida korxonaning **2024-yilning yanvar oyi** uchun xarajatlar smetasi va uning bajarilishi to'g'irisidagi raqamlarni neft-gaz sanoatidagi ehtimoliy xarajatlarga namuna sifatida taqdim etamiz.

2-jadval

Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar nomi	2024-yil			
	I chorak		I-yarim yillik	
	reja	kutilishi *	reja	kutilishi *
Jami daromadlar:	5 337 209 87 7	5 977 675 06 3	10 969 302 64 8	11 956 539 88 7
<i>shu jumladan, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum</i>	4 177 931 22 0	4 616 613 99 8	8 654 509 259	9 433 415 093
Jami xarajatlar:	4 956 180 09 1	5 303 112 69 7	10 238 962 92 1	11 006 885 14 0
<i>shu jumladan, foyda solig'i</i>	67 240 551	72 619 795	128 883 481	139 194 160
Sof foyda	381 029 787	674 562 366	730 339 727	949 654 747

* 2024-yilning I choragi va I-yarim yillik bo'yicha kutilayotgan dastlabki ma'lumotlar

Jadvalda korxonaning jami daromadlari, mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, jami xarajatlar va sof foyda keltirilgan. Xarajatlar ichida, ayniqsa, foyda solig'i ham

alohida ko'rsatilgan. Jami xarajatlar 2024-yilning I choragida 4956180091 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, I-yarim yillikda bu raqam 10 238 962 921 so'mga yetmoqda. Bu xarajatlarning o'sishi jami daromadlarning o'sishiga mos keladi va korxonaning faoliyatiga doir qo'shimcha xarajatlarni aks ettiradi. Foyda solig'ining o'sishi jami foydaning o'sishiga bog'liq bo'lib, soliq darajasi yoki soliqlarni to'lash hajmini aks ettiradi. Foyda solig'i jami xarajatlarning nisbatan kichik qismi, lekin uning ahamiyati kompaniyaning soliq to'lovlariga ta'sir etadi. Sof foyda I chorakda 381 029 787 so'm, I-yarim yillikda esa 730 339 727 so'mni tashkil qiladi. Sof foyda jami daromadlardagi farqni tashkil qiladi va xarajatlar bilan solishtirilganda, kompaniya ijobiy foyda ko'rsatganini bildiradi. Xarajatlar va foyda solig'i o'sishining sababi, faoliyatni kengaytirish, yangi mahsulotlar chiqarish, va yangi bozorlarni zabt etish bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar

Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarish xarajatlari, ayniqsa, geologik-qidiruv ishlari uchun xarajatlar va operatsion xarajatlar, kompaniyalar uchun asosiy moliyaviy yukni tashkil etadi. Ushbu xarajatlar neft va gaz resurslarining qazib olinishi, ishlov berilishi va sotilishi jarayonida yuzaga keladigan asosiy chiqimlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlarning to'g'ri boshqarilishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rentabellikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Neft va gaz sanoatidagi ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarish va optimallashtirish, kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, bozorning global o'zgarishlariga tez moslashish va rentabellikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalari, ushbu sektordagi xarajatlarni yanada samarali boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni, boshqaruv strategiyalarini va soliq siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ijobiy natijalarga erishish, O'zbekiston neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirishda, fikrimizcha, e'tibor quyidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilmog'i lozim:

- xom-ashyo bazasi holati va uni oshirish;
- tarmoqning faoliyat turlarini kengaytirish;
- ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida xarajatlarni kamaytirish (qidiruv, qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, saqlash, sotish va boshqalar);
- ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Yuqoridagilarga mos ravishda, O'zbekiston neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- neft-gaz sanoatidagi operatsiyalarni amalga oshirishni tartibga solishning huquqiy bazasini takomillashtirish;

- neft va gaz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish;
- mahalliy neft va gazdan turli xil sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beruvchi zamonaviy qayta ishlash tizimini rivojlantirish;
- neft va gaz konlarini aniqlash bo'yicha geografik tadqiqotlarni amalga oshirish;
- neft va gazdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning assortimentini kengaytirish hisobiga eksportni diversifikatsiyalash;
- milliy tarmoqning jahon neft-gaz sanoatiga integratsiyalashuvini xalqaro darajada rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Neft-gazni qayta ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish"- Texnika oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma, Muhamedov Baxtiyor Ergashevich-2022y.
2. "Neft va gaz konlari geologiyasi"- Darslik, A.V.Mavlonov, 2021.
3. "Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish usullarining ilmiy-nazariy asoslari"- Sh.B. Vaxobov.
4. "O'zbekistonda neft-gaz sanoati rivojlanishining imkoniyatlari va muammolari"- Sh. Butayarov.
5. lex.uz/uz/docs/-4600379
6. stat.uz
7. ung.uz